



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARDA KASBIY MASULYATNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI SHART-SHAROITLAR

Xalimova Ozoda

Namangan davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika (logopediya) bosqich magistranti

E-mail: ozodaxalimova2@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak maxsus pedagoglarning — kelajakda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash taqdiriga o'z umrini bag'ishlaydigan defektologlarning — kasbiy mas'uliyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etiladi. Shart-sharoitlarni uch guruhga ajratiladi: tashqi muhit, ichki shaxsiy omillar va o'quv jarayonining didaktik tuzilishi.

Kalit so'zlar: kasbiy mas'uliyat, maxsus pedagog, defektolog, shart-sharoitlar, kasbiy shakllanish, pedagogik muhit, empatiya, amaliyot, inklyuziv ta'lim.

УСЛОВИЯ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ.

Аннотация: В статье исследуются условия формирования профессиональной ответственности у будущих специальных педагогов-дефектологов. Выделяет три группы условий: внешняя среда, личностные качества студента и дидактическая организация учебного процесса.

Ключевые слова: профессиональная ответственность, специальный педагог, дефектолог, условия формирования, профессиональное становление, педагогическая среда, эмпатия, практика, инклюзивное образование.

CONDITIONS AFFECTING THE FORMATION OF PROFESSIONAL RESPONSIBILITY IN FUTURE SPECIAL EDUCATORS

Annotation: This article scientifically and pedagogically analyzes the conditions that influence the formation of professional responsibility in future special educators - defectologists who will devote their lives to working with children with developmental disabilities. The conditions are divided into three groups: external environment, internal personal factors and didactic structure of the educational process.

Keywords: professional responsibility, special educator, defectologist, conditions, professional formation, pedagogical environment, empathy, practice, inclusive education.

KIRISH

Maxsus pedagog — bu oddiy kasbni emas, balki insoniy burchni tanlagan inson. U har kuni rivojlanishida turli xil nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan ishlaydi: eshitmaydiganlar, ko'rmaydigan, nutqi cheklangan, intellektual rivojlanishida qiyinchiliklari bo'lgan bolalar. Bunday bolalarga dars o'tish oddiy bilim uzatish emas — bu har bir bolaning qalbiga yo'l topish, uning imkoniyatlarini ko'ra bilish va shu imkoniyatni rivojlantirib borish santidir. Ana shunday mas'uliyatli vazifani his qilish va uni o'z kasbiy hayot falsafasiga aylantirish — bo'lajak maxsus pedagogning eng muhim sifatiga aylanmog'i lozim.

Biroq tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kasbiy mas'uliyat o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi. Uni shakllantirishga muayyan shart-sharoitlar kerak. A.A.Xoliqov o'zining "Pedagogik mahorat" kitobida [1] o'qituvchining mas'uliyatini kasbiy odobning bosh o'lchovi deb atagan edi. Lekin u bu sifat qanday tarbiyalanadi, degan savolga to'liq javob bermagan. Aynan shu savol — kasbiy mas'uliyatni shakllantiruvchi shart-sharoitlarni tizimli o'rganish — ushbu maqolaning asosiy muammosi.

O'zbekistonda maxsus ta'lim tizimining rivojlanib borishi bu muammoni yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun [2] va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [3] rivojlanishida nuqsoni bo'lgan har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Lekin qonun faqat yo'nalishni ko'rsatadi — uni amalga oshirish esa defektologning qo'lida. Va agar u haqiqatan mas'uliyatli bo'lmasa, qonun qog'ozda qoladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kasbiy mas'uliyat tushunchasiga turli olimlar har xil yondashgan. O'.Tolipov va M.Usmonboyeva o'zlarining pedagogik texnologiyalar bo'yicha asarida mas'uliyatni pedagogning kasbiy yo'nalganligining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadi[4]. Sh.Sharipov esa kompetentlik nazariyasi doirasida mas'uliyatni kasbiy etika bilan

bevosita bog'laydi: kim o'z ishining oqibatini anglaydigan bo'lsa — shu mas'uliyatli pedagogdir.[5]. Ushbu ikki nuqtai nazar bir-birini to'ldiradi.

Rus surdopedagogikasida bu masalaga alohida e'tibor qaratgan. Defektolog uchun mas'uliyat ikki qatlamlidir: bir tomondan, bola kelajagiga bevosita ta'sir etish; ikkinchi tomondan, ota-onaning umid va ishonchini oqlash. Bu "ikkilamchi mas'uliyat" umumta'lim o'qituvchisiga qaraganda kuchliroq psixologik yuk tashiydi[6]. R.O.Agavelyan esa ushbu yuklamani emotsional jihatdan ko'tarish uchun defektologda empatiya qobiliyati kuchli bo'lishi kerakligini uzoq yillik tadqiqotlar bilan isbotlagan[7].

O'zbekiston kontekstida D.B.Yakubjonova bo'lajak defektologlardagi kasbiy ijodkorlik va mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, juda qiziqarli xulosa chiqargan: ijodkor pedagog mas'uliyatdan qo'rqmaydi — aksincha, mas'uliyat uning ijodkorligini rag'batlantiradi. Ya'ni bu ikki sifat bir-birini tug'diradi. Shu jihatdan Yakubjonova xulosasi ushbu maqolaning nazariy asosiga muhim hissa qo'shadi[8].

Bularning barchasini umumlashtirgan holda ushbu tadqiqotda kasbiy mas'uliyatga quyidagicha ta'rif beriladi: bu — bo'lajak maxsus pedagogning o'z ishining oqibati uchun shaxsiy javobgarlik tuyg'usi, nuqsonli bola bilan ishlash jarayonini vijdonan va mahorat bilan olib borishga ongli intilish, hamda xato qilgan taqdirda uni tan olib tuzatishga tayyor turish. Bu ta'rif uch qatlamni — bilish, his etish va xulq-atvorda namoyon bo'lish — birga ushlab turadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, talabaning kasbiy mas'uliyati eng avvalo u qanday muhitda o'qiyotganiga bog'liq. Bu oddiy gap bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin ortida jiddiy ma'no yotadi.

Birinci va eng kuchli tashqi omil — haqiqiy amaliyot muhiti. Qog'ozdagi bilim va real bola — bu ikki narsa orasida yer bilan osmon farqi bor. Nutqi yo'q, eshitmayotgan, yoki intellektual rivojlanishida qiyinchiliklari bo'lgan bola bilan birinchi

marta yuzma-yuz kelgan talaba bir paytning o'zida ikki his tuyadi: qo'rquv va mas'uliyat. Qo'rquv vaqt o'tishi bilan o'tadi, mas'uliyat esa — agar muhit to'g'ri bo'lsa — qoladi va o'sib boradi. D.B. Yakubjonova o'z tadqiqotida aynan shu narsani kuzatgan: amaliyot o'tagan talabalar kurs oxirida mas'uliyat ko'rsatkichida amaliyot o'tmagan tengdoshlaridan keskin ustun chiqdi[8].

Ikkinchi muhim tashqi omil — namunaviy pedagog ta'siri. Talaba o'zi ko'rgan odamga o'xshaydi — bu pedagogikaning eng qadimiy haqiqatlaridan biri. A.A.Xoliqov shaxsiy namunani kasbiy tarbiyaning asosiy vositasi deb ataydi[1]. Boshqa olimlar ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi: talaba namunaviy defektolog bilan birga ishlayotganda nafaqat texnikalarni, balki kasbga munosabatni, bolaga hurmatni, mas'uliyat tuyg'usini ham "ko'rib o'rganadi". Bu — so'z bilan o'rgatib bo'lmaydigan narsa.

Uchinchi tashqi shart-sharoit — huquqiy muhitning aniqligi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun [2] har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini qayd etadi. Bu qonunni o'qigan talaba o'zining kelajakdagi mas'uliyatini yanada aniq his qila boshlaydi: agar u bu bolaga to'g'ri ta'lim bermasa — qonuniy huquq buziladi. Bu tashqi ramka mas'uliyatni ichki tuyg'udan tashqari ijtimoiy zaruriyat sifatida ham ongga singdiradi.

Tashqi muhit qanchalik yaxshi bo'lmasin, agar talabaning ichida mas'uliyatga zamin bo'lmasa — hech narsa ildiz otmaydi. Shu sababli ichki shart-sharoitlar tashqi shart-sharoitlardan kam muhim emas.

Ichki omillarning birinchisi — kasbga ongli motivatsiya. Bu — "nega bu kasbni tanladim?" savoliga chin yurakdan javob bera olish. Tadqiqotimizda eksperimental guruhdagi talabalarning 68 foizi o'z motivatsiyasini "nogironligi bo'lgan bolalarga haqiqatan yordam qilmoqchi edim" deb ifodaladi. Qolgan 32 foizi esa diplom, ish joyi yoki oilaviy bosim kabi tashqi sabablarga ishora qildi. Har ikki guruhni bir yil kuzatganda aniqlandi: mas'uliyat ichki motivatsiyali talabalarda tizimli o'sib bordi, tashqi motivatsiyalilarda esa dalgalanib qoldi. Ikkinchi ichki omil — empatiya

qobiliyati. Empatiya — bu boshqaning holatini o'zingday his qila olish. Defektolog uchun bu — kasbiy omon qolish shartidir. R.O.Agavelyan yillar davomida defektologlarni kuzatib, shunday xulosaga kelgan: empatiyasi yuqori bo'lgan mutaxassislar bolaning qiyinchiliklarini tezroq sezadi, to'g'riroq yondashuv topadi va kasbiy tukansizlikdan (professional burnout) kuchliroq himoyalangan bo'ladi[7]. Uchinchi ichki omil — o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati, ya'ni refleksiya. Mas'uliyatli inson xato qilganda uni yashirib qo'ymaydi — xatoni ko'radi, tahlil qiladi va tuzatadi. Bu qobiliyat pedagog uchun ayniqsa muhim, chunki bolaning rivojlanishidagi har bir yo'qotilgan kun qaytmaydi.

Uchala guruhdan eng bevosita boshqariladigan shart-sharoitlar — didaktik, ya'ni o'quv jarayoniga bog'liq shart-sharoitlar. Bu yerda oliy ta'lim muassasasining o'zi bevosita ishtirokchi bo'ladi.

Birinchii didaktik shart-sharoit — fanlar mazmunida kasbiy etika va mas'uliyatning alohida o'rin egallashi. F.R.Tashabboeva oliy ta'limda maxsus metodika modullarini o'qitish bo'yicha o'z tadqiqotida ta'kidlagan: agar kasbiy etika va mas'uliyat masalalari fanlarda maxsus mavzu sifatida ko'tarilsa, talabalar bu tushunchani mavhum emas, balki tirik va amaliy his qiladi[11].

Ikkinchi didaktik shart-sharoit — amaliyotning yetarli hajmi va sifati. Amaliyot haqida tashqi shart-sharoitlar bo'limida gapirdik, lekin bu yerda uning didaktik tashkil etilishi muhim. Amaliyot shunchaki "borib keldim" darajasida bo'lsa — foydasi oz.

Uchinchi didaktik shart-sharoit — guruhli refleksiya va muloqot madaniyati. Haftada bir marta o'tiladigan refleksiya seminarlari — talabalar amaliyotda ko'rgan qiyin holatlarni muhokama qiladigan, bir-birining tajribasidan o'rganadigan suhbat majlislari — mas'uliyatni shakllantirishning eng samarali didaktik vositalaridan biri bo'lib chiqdi.

Bu uchala guruh shart-sharoitlar bir-birini kuchaytiradi. Faqat tashqi muhit yaratib, lekin talabaning ichki motivatsiyasiga e'tibor bermasa — natija yuzaki bo'ladi.

Yaxshi didaktika bo'lsa-yu, amaliyot yetarli bo'lmasa — bilim hayotdan uziladi. Ichki qobiliyat bo'lsa-yu, muhit qo'llab-quvvatlamasa — talant so'nadi. Faqat uchala guruh bir vaqtda ishlagan taqdirda kasbiy mas'uliyat barqaror va chuqur shakllanadi.

Maxsus pedagog — bu katta kuch talab etadigan, lekin katta ma'no beruvchi kasbni tanlagan inson. Uning qo'lida rivojlanishida qiyinchiliklari bo'lgan bola — nafaqat bugungi dars, balki o'sha bolaning butun kelajagi. Ana shunday his bilan ishlash — kasbiy mas'uliyat. Va bu his o'z-o'zicha emas, balki aniq shart-sharoitlar natijasida shakllanadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdi: kasbiy mas'uliyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar uch guruhga bo'linadi — tashqi muhit, ichki shaxsiy sifatlar va didaktik jarayon. Bu uchala guruh bir-birini kuchaytiradi va birgalikda ishlaydi. Ulardan biri bo'lmasa — zanjir uziladi.

Eksperimental tadqiqot natijalari maqsadli pedagogik ta'sirning aniq natija berishini isbotladi: mas'uliyat darajasi 1,9 barobar o'sdi. Bu raqam ortida oddiy bir haqiqat yotadi — oliy ta'lim muassasasi bo'lajak defektologning kasbiy mas'uliyatini tarbiyalashga hozirdan, birinchi kursdan boshlab jiddiy kirishishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib bir necha amaliy tavsiya berish mumkin. Birinchidan, "Kasbiy etika va mas'uliyat" fani "Maxsus pedagogika" yo'nalishi o'quv rejasiga majburiy kurs sifatida kiritilishi lozim — bu fan talabaga nafaqat qoidalarni, balki kasbiy vijdonni shakllantirishi kerak. Ikkinchidan, klinik amaliyot hajmi yiliga kamida 160 soatga yetkazilishi va har bir talabaga tajribali defektolog-mentor biriktirilishi kerak. Uchinchidan, pedagogik psixologiya fanida empatiyani rivojlantiradigan maxsus modul kiritilsin va har semestrda talabalarning empatiya darajasi kuzatib borilsin. To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasasi va maxsus ta'lim maktablari o'rtasida doimiy hamkorlik tartibi yo'lga qo'yilsin — bu nafaqat amaliyot uchun, balki talabaning kasb odamlarini ko'rib o'rganishi uchun ham zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi OMTV, 2011. — 303 b.
- [2] O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 09.07.2021, ORQ-694-son // lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/5498268>.
- [3] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020 // lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/5013009>.
- [4] Tolipov o', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. — 256 b.
- [5] Sharipov Sh. Pedagog kompetentligi va kasbiy sifatlar. — Toshkent: o'qituvchi, 2020. — 224 b.
- [6] Nazarova N.M. Spetsialnaya pedagogika: uchebnoye posobiye. — Moskva: Akademiya, 2010. — 400 s.
- [7] Agavelyan R.O. Emotsionalno-volitativnaya sfera pedagoga-defektologa kak faktor professionalnoy gotovnosti. — Novosibirsk: NGPU, 2006. — 187 s.
- [8] Yakubjonova D.B. Bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi. — Toshkent: TDPU, 2022.
- [9] Leontev A.N. Deyatel'nost. Soznaniye. Lichnost. — Moskva: Smysl, 2005. — 352 s.
- [10] Davletshin M.G. Shaxs psixologiyasi. — Toshkent: o'qituvchi, 2012. — 310 b.
- [11] Teshaboyeva F.R. Oliy ta'limda "Ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari. — Toshkent, 2021.
- [12] Sariyeva Q.N., Sayakova B.E. Razvitiye professionalnykh kompetentsiy pedagoga-defektologa kak osnova povysheniya kachestva spetsialnogo obrazovaniya // Molodoy uchenyy. — 2016. — №9. — S. 1117—1120.
- [13] Abduqodirov A., Azizxo'jayeva N. Ta'limda interfaol metodlar va texnologiyalar. — Toshkent: Xalq ta'limi, 2017. — 248 b.